

QASHQADARYO VILOYATI G'UZOR TUMANI 22-MAKTAB BOSHLANG'ICH SINFI O'QITUVCHISI

To'rxonova Xolida Tojiyevna

Boshlang'ich sinfi o'qituvchilariga husnixatni o'rgatishning ahamiyati va usullari.

Husnixat boshlang'ich sinfi o'qituvchilari uchun o'rganish juda muhim bo'lgan o'quv jarayoni hisoblanadi. Bu o'qituvchidan mas'uliyat talab qiladi. Ular o'qituvchilar bilan alohida ish olib borishlari zarur. Turli adabiyotlarda bu jarayon turlicha tasvirlangan. Ulardan birida husnixatni o'rgatishga nisbatan quyidagicha tamoyillar kiritilgan. Ular quyidagilar:

Husnixatga o'rgatish tamoyillari quyidagilardir:

1. Ongliliktamoyili.
 2. Genetiktamoyil.
 3. Takrorlashtamoyili.
 4. Ko'rgazmaliliktamoyili.
 5. Bolaning yosh va individual xususiyatlarini hisobga olish tamoyili.
 6. Yozuvga o'rgatishning o'qishga o'rgatish bilan bir paytda amalga oshirish tamoyili.
 7. Chiroyli yozuvning imlo bilan bogliqligita moyili.
 8. Savodli yozuvning grafik bilimlar bilan bogliqligita moyili.
2. Onglilik tamoyili. Chiroyli yozuvga o'rgatishda, o'qituvchilarning husnixat malakalarini takomillashtirib borishda bu tamoyilga qat'iy rioya qilish muhimdir. Bu tamoyilga ko'ra o'qituvchi harf shaklini qanday va qay tartibda yozishni bilishi, harfning qiyaligi, bo'yi va enini to'g'ri mo'ljallay olish lozim. harflarni harflarga ulashda qol uzmaslikka erishish nazarda tutiladi. Ruchka ushlashda ruchka uchi bilan barmoq oralig'idagi masofa 1,5-2 sm bo'lishi e'tiborda tutiladi. Shuningdek, partada o'tirish qoidalariga (ko'z va daftar oralig'ining 30 sm, daftarining parta ustida ma'lum qiyalikda bo'lishiga, partada engashmasdan, boshni to'g'ri tutib, tirsaklarni partaga engil qo'yish, oyoqlarni parta ostiga to'g'ri qo'yish, ko'krak bilan parta oralig'i masofasining bir kaft sig'adigan masofada bo'lishi) amal qilishga ongli ravishda erishiladi.
3. Genetik tamoyil. Chiroyli yozuv malakalarining shakllanishida genetik tamoyil katta o'rin tutadi. O'qituvchi bu tamoyilga asosan avval shakli oson, sodda harflarni yozdirishga o'rgatiladi. Ma'lumki, ba'zi bir harflar sodda ko'rinishga ega bo'lib, ularni yozishda qiyinchilik tug'ilmaydi. Shuning uchun chiroyli yozuvga o'rgatishda, dastavval bosh va kichik harflar guruhlab olinadi, hamda shu guruhlash asosida shakli oson harflardan asta-sekin shakli murakkab, yozish birmuncha murakkabroq harflarga o'tiladi. Masalan, kichik harflarning 1-guruhiga i, n, m, r kabilar kiradi. Bu harflar ilmoq shakllaridan iborat bo'lganligi sababli yozishda qiyinchilik bo'lmaydi. Shuningdek, genetik tamoyil asosida harf, bo'g'in, so'z, gap, matn tartibida osondan murakkabga qarab yozuv mashqlari o'tkaziladi.
4. Takrorlash tamoyili. Chiroyli yozuv mashqlarini esdan chiqmaslik uchun sistemali ravishda takrorlash juda muhimdir. Takrorlash tamoyili yozish jarayonini avtomatlashtirish asosidir. Chiroyli yozuvda gigienik qoidalarga amal qilish eslatib turilishi yaxshi natija beradi. Yozuv qiyaligiga amal qilish, harflarni qo'l uzmay yozish, harflar, so'zlar orasidagi masofani to'g'ri chamalash va yozishga oid qoidalarga amal qilishni takrorlash, yozuvni tahlil qilish, ularni taqqoslash kabi ishlar takrorlash tamoyili asosida olib boriladi. Xatolarni tuzatish tarzida olib borilishi, uning samarasiz mashqqa aylanib qolmasligiga amal qilinadi.
5. Chiroyli yozuvga o'rgatishda ko'rgazmali vositalar ham katta ahamiyat kasb etadi. Ko'rgazmali vositalarga «To'g'ri o'tir!» plakati, bosma harf shakllari ifodalangan

kartonlar, xattaxta, o'quvchilar qo'lidan ushlab yozdirish kabilar kiradi. Harfning yozma shaklini hosil qilishga o'rgatishda uning bosma shakli ko'rsatilib farqli jihatlari izohlanadi. Yaxshi tanlangan va mohirlik bilan foydalanilgan ko'rgazmali qurollar dars sifati va samaradorligini oshiradi.

6. O'quvchining individual xususiyatlarini hisobga olish uning bo'yini hisobga olgan holda oldingi partalarga o'tkazishdan boshlanadi. Parta o'quvchiga mos bo'lsa, u yozishda qiynalmaydi, tez charchab qolmaydi, chiroyli yozadi. O'quvchining individual xususiyatini hisobga olganda. Ko'rish qobiliyati yaxshi bo'lmagan o'quvchilarni yorug' tushadigan deraza tmonga, eshitish a'zolarida nuqsonlar bo'lgan bolani esa oldingi partalarga o'tkazish ham nazarda tutiladi. Malumki, ruchkani barmoqlar orasida noto'g'ri ushlaydigan o'quvchilar ham uchraydi, shu sababli bolaning ruchka ushlashiga ham alohida e'tibor qaratiladi. Daftarga harflarni 65° gradus qiyalikda yozish asosiy rol o'ynaydi. Buning uchun daftar - parta ustida to'g'ri turishi lozim. shuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchining daftarlarini kuzatib borishi darkor. Bu qoidaga amal qilish ham yozuv sifatini oshiradi. O'quvchilarning yozuv tezliklarini kuzatish, kamchiliklarini hisobga olish, yutuqlarini ko'pchilikka namuna qilib ko'rsatish ham bu tamoyilning asosiy shartlaridan sanaladi.

7. Dastur talablari yozuvga o'rgatishni o'qishga o'rgatish bilan bir paytda amalga oshirishni nazarda tutadi. Savod o'rgatishning dastlabki bosqichida o'qish va yozuv bog'lab olib boriladi. Bu usul K.D.Ushinskiy tomondan qo'llangan bolib, hozirga davr foydalanib kelinmoqda. O'quvchi yaxshi o'qish sifatleri (tog'ri, ongli, tez va ifodali o'qish)ni egallash bilan bir paytda yozuvga ham o'rgatilib boriladi. Negaki yozish va o'qish bolaning nutqiy rivojlanishi (lug'at boyligi, gap tuzish ko'nikmasi, nutqning mantiqiy boglanishi)ni ta'minlaydi. Yomon o'qigan bola yozuvni egallashi qiyin bo'ladi, chunki bo'g'inlab o'qish malakasidan so'ng, bo'g'inlab yozish malakasi shakllanadi.

8. Chiroyli yozuv imlo bilan chambarchas bogliq. O'quvchining imloviy savodxonligi haqida g'amxo'rlik qilish tilning aniqligi, fikrni to'g'ri ifodalash, kishilar bilan o'zaro xatosiz muomala uchun g'amxo'rlik demakdir. Shu sababli ham savod o'rgatish davrida bolalarda grafik malakalarni shakllantirish bilan birga imloga oid malakalarning shakllanishiga zamin yaratiladi.

Malumki, savod o'rgatish davrida o'quvchi gapni bosh harf bilan yozish, so'zning satrga sig'may qolgan qismini keyingi qatorga ko'chirish, kishilar ismi, sharifi, hayvonlarga qo'yilgan nomlarda bosh harf ishlatilishini amaliy tarzda o'rganadi. Chiroyli yozuv darslarida so'zlar, gaplar, matnlar yozish, ularning imlosini tekshirishi orfografik ziyraklikni asta-sekin shakllantira boradi, imlo qoidalarini puxta egallashlariga zamin yaratadi. Insonning yozma nutqi harflar orqali shakllanadi. Husnixat darslarida savodli yozuv grafik malakalar bilan shakllantirilishi asosiy vazifa hisoblanadi. Har bir harfning aniq yozilishi yozuvning aniq va ravon bo'lishini ta'minlaydi. Buhing uchun harflarning shaklini to'g'ri yozish, ularni to'g'ri ulashning ahamiyati kattadir. Harflarni bosmasdan bir tekisda yozish, elementlarni ajratmasdan bog'lash, so'zlarni qatorda to'g'ri joylashtirish, yozuv vaqtining belgilab olinishi, tahlil ishlarining (bo'g'in-tovush, tovush-harf, imloviy tahlil), ya'ni fonetik-grafik tahlilning amalga oshirilishi muhim sanaladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilariga chiroyli yozuvni o'rgatish savotxonlikning poydevori hisoblanadi. Bolalarga chiroyli yozuvni o'rgatishdan maqsad o'quvchilarning og'zaki va yozma nutqini ravon qilish hamda ularni xar tomonlama yetuk insonlar etib tarbiyalash bilan bir qatorda go'zallikka intiluvchi uni yurakdan his qila oladigan go'zallikni yaratishga intiladigan shaxslar qilib voyaga yetkazish nazarda tutilgan. Husnixatga o'rgatishning maqsadi esa kichik yoshdagi o'quvchilarga yozishdek murakkab jarayonni o'rgatish orqali ularning chiroyli yozuv malakalarini shakllantirishdan iborat. Boshlang'ich sinf

o'qituvchisining vazifalar ko'p qirrali bo'lib, u nafaqat o'qishga balkim o'quvchilarga chiroyli yozuv orqali behato va ravon yozishga va imloviy savodxonlikni oshishiga ahamiyat berishi lozim.

Inson hayotida yozuvning o'rni be'qiyosdir. Chunki yashash jarayonida har-bir kishi turli xil hujjatlardan rasmiy qog'ozlardan va shunga o'xshash yozuv jarayonidan foydalanishi hamda muro-jat qilishi sir emas. Ularning hammasidan foydalanganda bexato va chiroyli yozish talab etiladi. Biz bo'lajak pedagoglar tez, ravon, bexato yozish usullari haqidagi tushunchani o'zimizda malaka hosil qilishga xarakat qilamiz.

Demak, boshlang'ish sinf o'qituvchisining yozuvi chiroyli va behato bo'lishi shart va zarurdir. Bunga erishish uchun esa yozuv tamoyillarini, usullarini, vositalarini, uslubiyatlarini mukammal bilishga harakat qilish kerak.

Husnixat malakalarini shakllantirishda birinchi novbatda harflarni shaklini tug'ri tassavur qilishga bir xil qiyalikda yozishga, so'zlarda harflarni to'g'ri bog'lashga, so'zlarni qator bo'ylab tug'ri joylashtirishdan iborat. Umumiy didaktik qoidalari mavjud.

1. Takroriylik. 2. Ko'rgazmalilik.

3. Yosh va o'ziga xos xususiyatlarini o'ziga olish.

4. Tushunarliklik.

5. Onglilik.

Chiroyli yozuv malakalarini shakllantirishda talabalarga ozodalik talablarini tushuntirish shart. Bu talab **gigiyenik talab** deyiladi.

Husnixatga o'rgatish **genetik talab** asosida amalga oshiriladi.

Har –bir yozuv mashqini aniq maqsad yo'lida oson va tushunarli olib borilishi shart. Bolalarda yozuv ko'nikmalari orqali yozuv malakalarini hosil qilar ekanmiz ularning o'ziga xos xususiyatlarini xisobga olib qo'l va barmoq muskullarini harakat tezligini markaziy nerv sistemalarini muskullarining boshqara olishini hisobga olish joiz. Buning uchun oddiydan murakkabga qarab o'rgatib boriladi. Chiroyli yozuv jarayonida harflar guruhlariga ajratiladi. 1-guruhda yozishni oson bo'lgan shakllari qolga guruhlarda esa murakkab elementli harflar o'rgatilib boriladi.

Husnixat darslari birinchi sinfda savod o'rgatish davri tugagandan so'ng, 3-chorakdan boshlab alohida olib boriladi. Ammo dastlabki husnixat malakalari o'quvchilar maktabga qadam qo'ygandan boshlab amalga oshiriladi, ya'ni yozuv darslarida husnixat malakalari o'stiriladi.

Birinchi sinfda yozuv darslari husnixat malakasini o'qitish orqali olib boriladi. Chiroyli va toza yozilgan xat yozayotgan shaxsning madaniyatini va uni o'qiydigan kishiga nisbatan hurmatini ham belgilaydi. Hozirgi kunda fan-texnika taraqqiyotining o'sishi orqali kundalik hayotimizda turli-tuman (qog'ozlardan) hujjatlardan keng foydalanamiz, har xil konspektlar, ish qog'ozlari, hisobotlar keng o'rin olmoqda. Bularning hammasi faqat chiroyli va aniq yozish bilan birga, tezlikni ham talab etadi. Umumiy ta'lim maktabini isloh qilishning asosiy yo'nalishlarida ko'rsatilganidek, yozuv darslarida harflarni aniq, toza va chiroyli yozishni mukammal o'rgatish talab etiladi. Ammo qisqa muddat ichida o'quvchilarda chiroyli, tez va toza yozish malakalarini o'stirish mumkin emas, buning uchun bir necha yil talab etiladi. Chiroyli yozuvga o'rgatish uchun bolalarning maktabga qadam qo'ygan kunlaridan boshlab quyidagi vazifalarni bajarishlari talab etiladi.

1. Yozuv vaqtida partada to'g'ri o'tirish.
2. Ruchkadan to'g'ri foydalanish.
3. Daftardan to'g'ri foydalanish.
4. Yozma va bosma harflarning shakli bilan tanishtirish.
5. Yozma shakldagi harflar yordamida bo'g'in, so'z va gap tuzishga o'rgatish.

Yuqorida ko`rsatilgan malakalar shakllangandan so`ng husnixat darslarida ular mustahkamlanadi. Husnixat malakasini shakllantirish uchun birinchi navbatda harflarning shaklini to`g`ri tasavvur etishga, bir xil qiyalikda (65°) yozishga, so`zlarni qatorlarga to`g`ri joylashtirishga o`rgatiladi. Daftari chiziqlarini birin-ketin almashuvi davomida, harflarning qiyaligini va ular orasidagi masofani to`g`ri saqlash, kichik va bosh harflarning nisbatini to`g`ri chamalab yozishga o`rgatish juda mumkindir. Shuningdek, husnixat darslarida ma`lum guruhga oid harflarni yozishga o`rgatishda o`quvchilarda uchraydigan ayrim tipik xatolarning oldini olish va tuzatish ustida ham ish olib borish lozim. Yozuvning tezligi oshishi bilan ayrim bir-biriga o`xshash harflarning shaklini buzib yozish hollari uchraganda esa, ularni qayta mashq qildirish lozim. Chiroyli yozuvga o`rgatish umumiy didaktik qoidalar bilan birga yozuv malakasini shakllantiruvchi o`ziga xos qoidalarni ham o`z ichiga oladi. Umumiy didaktik qoidalar, takroriylik, ko`rgazmalilik, yosh va o`ziga xos xususiyatlarni hisobga olish, tushunarliklik, onglilik husnixat qoidalarini amalga oshirishda juda muhimdir. Ayniqsa, ko`rgazmalilik tamoyili chiroyli yozuv malakasini singdirishda muhim rol o`ynaydi. Har bir o`quvchi u yoki bu harfni tushunib, yozilishini, harflarning bir-biriga bog`lanishini, kichik va bosh harflarning bir-biriga nisbatini, balandligini. Qiyaligini, ruchkani ushlash va to`g`ri ko`chirish qoidalarini yaxshi bilishlari lozim.